

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi «Fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar aj

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi «Fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 320-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi «Fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 320-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

a) 2018 yil 1 apreldan boshlab fermer xo'jaliklari tasarrufidagi elektr energiyasi iste'molini hisobga olish uskunalar bilan ta'minlangan nasos agregatlari va sug'orish quduqlarining paxta xom ashyosi va boshqoqli don etishtirish uchun iste'mol qilgan elektr energiyasi qiymati O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti (keyingi o'rinlarda Davlat byudjeti deb ataladi) mablag'lari hisobidan qoplab berilishi belgilanganligi;

b) Fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar hokimliklariga O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, «O'zbekenergo» aktsiyadorlik jamiyati, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi bilan birgalikda:

suv iste'molchilari uyushmalari tasarrufidagi nasos agregatlari va sug'orish quduqlarini ulardan foydalanuvchi tegishli fermer xo'jaliklariga suv iste'molchilari uyushmalarining roziligi bilan belgilangan tartibda 2018 yil 1 iyunga qadar bepul o'tkazib berishni ta'minlash;

har yilning 1 aprel holatiga fermer xo'jaliklari nasos agregatlari va sug'orish quduqlarining texnik holatini, ularga birlashtirilgan sug'oriladigan er maydonlarini, jumladan paxta xom ashyosi va boshqoqli don etishtiriladigan erlarni xatlovdan o'tkazish hamda tegishli dalolatnomalarni rasmiylashtirish;

har yil 1 mayga qadar kelgusi yilda paxta xom ashyosi va boshqoqli don etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi prognoz qiymatini Davlat byudjetidan qoplash bo'yicha asoslangan talabnomalarni O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga taqdim qilish topshirilganligi;

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi va viloyatlar moliya boshqarmalari hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan paxta xom ashyosi va boshqoqli don etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini Davlat byudjetidan qoplash bo'yicha taqdim qilingan talabnomalarga asosan hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan 2018 yil uchun tegishli miqdorda Davlat byudjeti mablag'ini ajratish hamda kelgusi yillar uchun Davlat byudjeti parametrlarini shakllan-tirishda e'tiborga olish;

paxta xom ashyosi va boshqoqli don etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish topshirilganligi;

d) Paxta xom ashyosi va boshqoqli don etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning yil yakuni bo'yicha iqtisod qilingan qismi tegishli nasos agregatlari va sug'orish quduqlarini ta'mirlash hamda elektr energiyasini tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun fermer xo'jaliklari ixtiyorida qoldirilishi;

e) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi va Moliya vazirligi 2018 yil tajribasidan kelib chiqib zarur holda fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish tartibini yanada takomillashtirish bo'yicha 2019 yil 1 aprelda qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2018 yilda faoliyat yurituvchi Iste'molchilarning nasos agregatlari va sug'orish quduqlari iste'mol qilinadigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun talabnomalarni rasmiylashtiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ishchi guruhning vazifalari etib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda ko'rsatilgan

topshiriqlar belgilansin.

Tumanlar hokimlari o`z qarorlari bilan hududiy tuman ishchi guruhlari tarkibini tasdiqlash topshirilsin.

4. Tuman hokimliklari Suv xo`jaligi vazirligi, Qishloq xo`jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish qo`mitasi, Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi, «Qoraqalpog` hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» aktsiyadorlik jamiyati, Qoraqalpog`iston fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa er egalari kengashi bilan birgalikda:

suv iste`molchilari uyushmalari tasarrufidagi nasos agregatlari va sug`orish quduqlarini ulardan foydalanuvchi tegishli fermer xo`jalik-lariga suv iste`molchilari uyushmalarining roziligi bilan belgilangan tartibda 2018 yil 1 iyungacha qadar bepul o`tkazib berishni ta`minlash;

har yilning 1 aprel` holatiga fermer xo`jaliklari nasos agregatlari va sug`orish quduqlarining texnik holatini, ularga birlashtirilgan sug`oriladigan er maydonlarini, jumladan paxta xom ashyosi va boshoqli don etishtiriladigan erlarni xatlovdan o`tkazish hamda tegishli dalolatnomalarni rasmiylashtirish;

har yil 1 mayga qadar kelgusi yilda paxta xom ashyosi va boshoqli don etishtiruvchi fermer xo`jaliklarining nasos agregatlari va sug`orish quduqlari iste`mol qiladigan elektr energiyasi prognoz qiymatini Davlat byudjetidan qoplash bo`yicha asoslangan talabnomalarni Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan kelishilgan holda O`zbekiston Respublikasi Suv xo`jaligi vazirligiga taqdim qilish topshirilsin.

5. Suv xo`jaligi vazirligi 5 kun muddatda suv manbalarining suvlili-giga qarab suv olish limitlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlab joylardagi barcha suvdan foydalanuvchilarga etkazsin.

6. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi:

Tuman moliya bo`limlari hamda Qoraqalpog`iston Qishloq xo`jaligi vazirligi tomonidan paxta xom ashyosi va boshoqli don etishtiruvchi fermer xo`jaliklarining nasos agregatlari va sug`orish quduqlari iste`mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini Davlat byudjetidan qoplash bo`yicha taqdim qilingan talabnomalarga asosan hosildorligi past bo`lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi etishtiruvchi qishloq xo`jaligi korxonalarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag`lar hisobidan 2018 yil uchun tegishli miqdorda Davlat byudjeti mablag`ini ajratish hamda kelgusi yillar uchun Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda e`tiborga olsin;

paxta xom ashyosi va boshoqli don etishtiruvchi fermer xo`jalik-larining nasos agregatlari va sug`orish quduqlari iste`mol qiladigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun Davlat byudjetidan ajratilgan mablag`larning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o`rnatilsin.

7. «Qoraqalpog` hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» aktsiyadorlik jamiyati paxta xom ashyosi va boshoqli don etishtiruvchi fermer xo`jalik-larining nasos agregatlari va sug`orish quduqlarini shartnoma va oldindan to`lov asosida o`z vaqtida elektr energiyasi bilan ta`minlasin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o`rinbosari A.Tajetdinov va Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.Xojametov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

Izlash



- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)